# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
# TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
# QARORI

2022 - yil 3 - mart 67-10-212-Q/22 Toshkent tuman hokimligi

**Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 26-fevraldagi 133-10-0-Q/22-son qarori ijrosini ta`minlash to`g`risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “2022-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ–134-son qarori va Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 26-fevraldagi 133-10-0-Q/22-son qaroriga muvofiq, shuningdek, Xalqimiz asrlar davomida e’zozlab kelayotgan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tarafidan xalqaro bayram sifatida e’tirof etilgan Navro‘zi olamning mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan o‘zgarish va yangilanishlar jarayoniga uyg‘un va hamohang tarzda, har tomonlama yuksak saviyada o‘tkazish maqsadida, hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

**QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-fevraldagi PQ–134-son qarori hamda Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 26-fevraldagi 133-10-0-Q/22-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2022-yilgi Navro‘z umumxalq bayrami mamlakatimizda "Assalom, Navro‘z - yangilanish, mehr-oqibat va qadr-qimmat ayyomi!" degan bosh g‘oya asosida umumxalq sayillari shaklida ko‘tarinki ruxda va yuqori saviyada nishonlanilishi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

2022-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tuman Tashkiliy tuzilma tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2022-yilgi Navro‘z umumxalq bayramini o‘tkazish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Tuman Tashkiliy tuzilma (I.Dostonov) “Yo‘l xaritasi”da nazarda tutilgan chora-tadbirlarning samarali bajarilishi hamda Navro‘z umumxalq bayramining tuman markazida umumxalq sayillari shaklida keng nishonlanishini ta’minlasin.

4. Tumanda Navro‘z umumxalq bayramini yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratilsin:

Navro‘z kunlarida inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik, ona zaminga mehr va e’tibor yaqqol o‘z ifodasini topishini aks ettiradigan, atrof-muhitni, uning ne’matlarini asrab-avaylash, bugungi tinch hayotni qadrlab, shukronalik tuyg‘usi bilan yashashga, inson qadrini ulug‘lashga da’vat etadigan ma’naviy-ma’rifiy

tadbirlarni uyushtirish;

so‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar, xalqimizning hayoti, qalbi va ongida yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni Navro‘zning azaliy qadriyat va an’analariga hamohangtarzda, ta’sirchan usullarda ifoda etish;

bayram munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylari, keksa avlod vakillarini har tomonlama e’zozlash, Mehribonlik va Muruvvat uylari tarbiyalanuvchilari, Saxovat uylarida yashayotganlar, "Temir daftar", “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Mehr daftari”ga kiritilgan hamda ko‘makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga beg‘araz yordam berish bilan bog‘liq xayriya tadbirlarini amalga oshirish;

mamlakatimizda boshlangan “Yashil makon”a umummilliy loyihasida belgilangan tadbirlarni uyushtirish, Navro‘z umumxalq bayrami arafasida tumanimizning barcha hududlarida, har bir ko‘cha, mahallalarda obodonchilik va ko‘kalamzorlashtirishga qaratilgan umumxalq hasharlarini o‘tkazish;

millatlararo do‘stlik va totuvlik muhitini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlarning amaliy natijalari, yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillarining Navro‘z umumxalq bayramini nishonlashga oid urf-odatlari, an’ana va qadriyatlarini keng namoyish etish;

bayram tadbirlari bo‘lib o‘tadigan joylarda hunarmandchilik ko‘rgazmalari, milliy sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish, kitob rastalari, ko‘chma savdo do‘konlarini tashkil qilish, ko‘klam taomlarini tayyorlash va ularning savdosini yo‘lga qo‘yish;

barcha mahallalarda o‘tkaziladigan bayram tadbirlarida, ommaviy axborot vositalarida Navro‘z bayramining tarixi, har bir hudud aholisi o‘rtasida uni nishonlash bilan bog‘liq urf-odat va an’analarning mohiyati va ahamiyatini keng yoritish.

5. Tuman Madaniyat bo`limi (G`.Xojiyev):

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘limi
(N.Mamajonov) bilan birgalikda bir hafta muddatda tuman Navro‘z umumxalq bayramiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan teatrlashtirilgan konsert tomoshasining dasturi va ssenariysini ishlab chiqsin;

konsert tomoshasini tajribali ssenarist va rejissorlar, bastakorlar, baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste’dodli yosh ijrochilar, folklor san’ati vakillari bilan birgalikda yuqori badiiy saviyada tayyorlash choralarini ko‘rsin.

a) besh kun muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi Navro‘z umumxalq sayillarini o‘tkazish bo‘yicha hududiy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

Navro‘z umumxalq sayillari o‘tkaziladigan asosiy maydonlar, xiyobonlar va ko‘chalarni belgilash, ularni milliy uslubda bayramona bezatish hamda sahnalarni o‘rnatish;

joylarda bo‘lib o‘tadigan umumxalq sayillariga mahalliy folklor guruxlari, badiiy havaskorlik jamoalari, sirk san’ati ustalari, oilaviy ansambllar, baxshilar, shoirlar, shuningdek, professional ijrochilar va iste’dodli estrada artistlarini belgilangan tartibda keng jalb etish;

bayram tadbirlari doirasida har bir hududga xos bo‘lgan xalq o‘yinlari, tomoshalar, ko‘rgazmalar o‘tkazish, bahoriy taomlar sotiladigan ochiq oshxonalarni joylashtirish;

b) bayram dasturlarini va ommaviy tomoshalarni tayyorlashda, ko‘chalar, xiyobonlar va maydonlarni bezatishda malakali mutaxassislardan iborat ijodiy guruhlarni keng jalb etish;

d) barcha tadbirlar karantin qoidalari va jamoat xavfsizligi talablariga qat’iy rioya qilgan holda o‘tkazilishini ta’minlasin.

6. Belgilab qo‘yilsinki, o‘tkaziladigan bayram tadbirlari tuman mahalliy budjetlari hisobidan qoplanadi.

7. Tuman hokimligi Axborot-xizmati (D.Ismoilova) Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish ishlarini va bayram tadbirlarini atroflicha yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari I.Dostonov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi** **O.Rustamov**

Toshkent tuman hokimining
2022 yil 3 martdagi
67-10-212-Q/22-son qaroriga
1-ilova

# Toshkent tumanida 2022-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy tuzilma TARKIBI

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1. | I.Dostonov | - | Toshkent tumani hokimining o‘rinbosari, *Tashkiliy qo‘mita raisi* |
| 2. | G`.Xojiyev | - | Tuman Madaniyat bo`limi boshlig‘i *Tashkiliy qo‘mita raisining o`rinbosari* |
| 3. | B.Abduraxmonov | - | Tuman Moliya bo`limi boshlig‘i |
| 4. | D.Mansurov | - | Tuman Mudofaa ishlari bo`limi boshlig‘i |
| 5. | D.Mirzamamedov | - | Tuman Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i |
| 6. | A.Xakimov | - | Milliy gvardiya Toshkent tumani bo`limi |
| 7. | M.O`tkirov | - | Tuman Xalq ta’limi bo`limi boshlig‘i |
| 8. | L.Karabayeva | - | Tuman Maktabgacha ta’lim bo`limi boshlig‘i |
| 9. | X.Asadov | - | Tuman Tibbiyot birlashmasi bosh shifokori |
| 10. | I.Saidikarimov | - | Tuman Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo`limi boshlig‘i |
| 11. | O.Abdulxayev | - | Yoshlar ishlari agentligi tuman bo`limi boshlig‘i |
| 12. | D.Ismoilova | | Tuman hokimligi Axborot-xizmati rahbari |
| 13. | N.Mamajonov | - | Respublika Ma’naviyat va ma`rifat markazi tuman bo‘limi rahbari |
| 14. | R.Xasanov | - | Tuman hokimligi Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish, ma`naviy va ma`rifiy ishlar bo`yicha bosh mutaxassis *Tashkiliy qo‘mita kotibi* |

*Izoh: Komissiya va Kengash a’zolari boshqa ishga o`tganlarida tegishli lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar komissiya va Kengashlar tarkibiga a’zo hisoblanadi*

Toshkent tuman hokimining
2022 yil 3 martdagi
67-10-212-Q/22-son qaroriga
2-ilova

**Toshkent tumanida 2022-yilgi Navroʻz umumxalq bayramini oʻtkazish boʻyicha**
**"YOʻL XARITASI"**

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. Tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar** | | | | | |
| 1. | Joylarda Navroʻz umumxalq bayramini mamlakatimizda inson qadrini yuksaltirish boʻyicha olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlarning amaldagi ifodasi sifatida yuqori saviyada oʻtkazish. | 1.Hududiy tashkiliy qoʻmitalar tarkibini shakllantirish.<br>2.Navroʻz bayramini yuqori saviyada nishonlash boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.<br>3.Chora-tadbirlarning ijrosini ta'minlash. | 2022-yil fevral<br>2022-yil mart | | Tuman hokimligi (I.Dostonov), tegishli bo`lim va tashkilotlar |
| 2. | **"Yashil makon"** umummilliy loyihasi doirasida Navroʻz bayrami arafasida barcha shahar va qishloqlarda, mahallalarda umumxalq hasharlari, keng qamrovli obodonlashtirish va koʻkalamzor-lashtirish tadbirlari, ta'lim muassasalarining oʻquvchi va talabalari ishtirokida **"Mahallamga nihol ekaman!"** aksiyasini oʻtkazish. | 1.Chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.<br>2.Tadbirlarni yuqori saviyada oʻtkazish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish. | 2022-yil fevral- aprel | Mahalliy budjet mablagʻlari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, tashkilotlarni oʻz mablagʻlari | Tuman hokimligi (Sh.Salixov, S.Mirsagatov), Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash bo`limi, Xalq ta'limi bo`limi |
| 3. | Mahallalar, koʻchalar, xiyobonlar hamda madaniyat va istirohat bogʻlari hududini Navroʻz bayrami mazmun-mohiyatiga mos ravishda bezatish. | 1.Mahallalar, koʻchalar, xiyobonlar va boshqa ijtimoiy ob'ektlarni bayramga tayyorlash, hududlarni bayramona bezatish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>2.Rejada belgilangan ishlarni amalga oshirish. | 2022-yil fevral<br><br>Reja asosida | Mahalliy budjet mablagʻlari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, tashkilotlarni oʻz mablagʻlari | Tuman hokimligi (I.Saidikarimov), Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash bo`limi |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| 4. | Navro‘z bayrami munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylari, keksa avlod vakillarini har tomonlama e’zozlash, Mehribonlik va Muruvvat uylari tarbiyalanuv-chilari, Saxovat uylarida yashayotganlar, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Mehr daftari"ga kiritilgan hamda ko‘makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish hamda taniqli san’atkorlarning ushbu muassasalarga tashriflarini tashkil qilish bilan bog‘liq xayriya tadbirlarini amalga oshirish. | 1. Chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.<br>2.Tadbirlarni amalga oshirish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish. | 2022-yil mart | Mahalliy budjet mablag‘lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, tashkilotlarni o‘z mablag‘lari | Tuman hokimligi (I.ISaidikarimov), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo`limi, Milliy gvardiya tuman bo`limi, Madaniyat bo`limi, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo`limi, Tibbiyot birlashmasi |
| 5. | Navro‘z umumxalq bayrami munosabati bilan arzonlashtirilgan **qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkalari, ko‘chma savdo do‘konlarini tashkil qilish, Navro‘z taomlarini** tayyorlash hamda ularning savdosini yo‘lga qo‘yish. | 1.Savdo yarmarkalari tashkil etiladigan bozorlar ro‘yxatini shakllantirish.<br>2.Fermer xo‘jaliklari va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni yarmarkalarga jalb etish.<br>3.Navro‘z taomlarini tayyorlash va ularning savdosini tashkil qilish. | 2022-yil mart | | Tuman hokimligi (Sh.Salixov), tegishli bo`lim va tashkilotlar, |
| **II. Ommaviy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy va targ‘ibot-tashviqot tadbirlari** | | | | | |
| 6. | Toshkent tumanida Navro‘z umumxalq bayramiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan asosiy bayram tadbiriga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish. | 1. Taniqli ssenarist va ijodkorlar ishtirokida asosiy bayram tadbiri ssenariysi va dasturini tayyorlash.<br>2.Taniqli rejissyor, baletmeyster, bastakor, rassom va boshqa ijodkorlar ishtirokida asosiy bayram tadbiriga tayyorgarlik mashg‘ulotlarini olib borish. | 2022-yil fevral<br><br>2022-yil mart | Mahalliy budjeti mablag‘lari | Tuman hokimligi (I.Dostonov), tuman Madaniyat bo`limi, |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| 7. | Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan tadbirlarda tumanimizdagi badiiy jamoalarning ishtirokini ta’minlash. | Milliy madaniy markazlarning madaniy dasturlarini tayyorlash va bayram tadbirlarida ularning ishtirokini ta’minlash. | 2022-yil mart | Mahalliy budjet mablag‘lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari | Tuman hokimligi (I.Dostonov), tuman Madaniyat bo`limi, |
| 8. | Hududlardagi madaniyat va istirohat bog‘larida **dorbozlar, polvonlar, sirk jamoalari, folklor-etnografik ansambllar, taniqli san’atkorlar, estrada xonandalari va baxshilarning** chiqishlarini tashkil etish. | 1.Madaniy dasturlar rejasini ishlab chiqish.<br>2.Madaniy dasturlarni amalga oshirish. | 2022-yil mart | Mahalliy budjet mablag‘lari, tashkilotchilarni o‘z mablag‘lari | Tuman hokimligi (I.Dostonov), tuman Madaniyat bo`limi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo`limi |
| 9. | Respublika miqyosida madaniyat va san’atning musiqa, teatr, kino, tasviriy va amaliy san’at, sirk, xalq badiiy ijodiyoti, milliy kiyimlar namoyishi yo‘nalishlari bo‘yicha **"Har kuning bo‘lsin, Navro‘z"** shiori ostida madaniy tadbirlar va ko‘rgazmalar uyushtirish. | 1.Chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.<br>2.Tadbirlarni o‘tkazish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish. | 2022-yil fevral<br>2022-yil mart | Mahalliy budjet mablag‘lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari | Tuman hokimligi (I.Dostonov), tuman Madaniyat bo`limi, Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi tuman bo‘limi, |
| 10. | Navro‘z sayillari o‘tkaziladigan joylarda **hunarmandchilik asarlari ko‘rgazmalari, kitob rastalarini** tashkil qilish. | 1.Navro‘z sayillari o‘tkaziladigan asosiy maydonlar, xiyobonlar va ko‘chalarni belgilash va ularni milliy uslubda bayramona bezatish.<br>2. Tasdiqlangan reja asosida tadbirlarni o‘tkazish. | 2022-yil mart | Mahalliy budjet mablag‘lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari | Tuman hokimligi (S.Ergashev), "Hunarmand" uyushmasi tuman bo‘limi |
| 11. | Navro‘z bayrami munosabati bilan sumalak va bahoriy noz-ne’matlarni targ‘ib etuvchi **"Bahor ne’matlari"** ko‘rgazmalari hamda **"Eng yaxshi Navro‘z taomlari"** tanlovlarini o‘tkazish. | 1.Chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.<br>2.Tadbirlarni o‘tkazish va tanlov g‘oliblarini munosib taqdirlash. | 2022-yil mart | Tashkilotchilarni o‘z mablag‘lari | Tuman hokimligi (S.Ergashev), Tadbirkorlikka ko`maklshish markazi |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| 13. | Mahallalarda o‘zining ezgu fazilatlari hamda erishayotgan yutuqlari bilan ko‘pchilik orasida katta hurmat qozongan insonlarning hayotiy tajribasini ommalashtirishga qaratilgan uchrashuvlar tashkil etish. | 1.Uchrashuvlar rejasini ishlab chiqish.<br>2.Uchrashuvlarni yuqori saviyada o‘tkazish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish. | 2022-yil mart | Mahalliy budjet mablag‘lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari | Tuman hokimligi (I.Saidikarimov), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo`limi |
| **III. Yoshlar uchun mo‘ljallangan tadbirlar** | | | | | |
| 14. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, ijod maktablari, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalari o‘quvchi va talabalari o‘rtasida Navro‘z bayramining tarixi, mazmun-moqiyati va axamiyatiga bag‘ishlangan insholar tanlovlarini o‘tkazish. | 1.Insholar tanlovini o‘tkazish reja-dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>2.Insholar tanlovlarini o‘tkazish va g‘oliblarni munosib taqdirlash. | 2022-yil fevral<br><br>2022-yil mart | Tashkilotchilarni o‘z mablag‘lari | Tuman hokimligi (I.Dostonov), tuman Xalq ta’limi bo`limi |
| 15. | Mahallalarda yashayotgan yoshlar o‘rtasida uloq-ko‘pkari, poyga, kurash, chillak, arqon tortish va boshqa milliy sport o‘yinlari bo‘yicha musobaqalar va ko‘rgazmali chiqishlar tashkil etish. | 1.Musobaqa va ko‘rgazmali chiqishlar o‘tkaziladigan joylarni aniqlash.<br>2.Musobaqa va ko‘rgazmali chiqishlarni yuqori saviyada o‘tkazish. | 2022-yil fevral<br>2022-yil mart | Tashkilotchilarni o‘z mablag‘lari | Tuman hokimligi (I.Dostonov) |